

**TECHNOLOGY OF PROPAGATION OF ORNAMENTAL PLANTS
BY ROOT BACHKI**

Jalolov Komiljon Bakhromovich

plant propagation technology through root BACHKI

Jalolov Komiljon Bakhromovich

**Foundation doctoral student of Andijan Institute of Agriculture and
Agrotechnology,**

Tuychiev Khikmatullo Yuldashalievich

Director of Andijan region “Andijonyolkokalam” UK, b.f.n.

Annotation: article Chitalpa Tashkent t from ornamental trees.S. Elias & Wisura, Melia azedarach L., and Rhus coriaria L. the results of breeding characteristics from the root bachki of their plants are described. In the climatic conditions of the Andijan region, the growth and development of this ornamental plant idiz bachki has been studied and it has been observed in the experiment that its use in landscaping is promising.

Keywords: Chitalpa Tashkent T.S. Elias & Wisura, Melia azedarach L., and Rhus coriaria L, Caesalpinia gillesii Wall. Root bachki, seedling, Greening, reproduction.

Kirish. Idiz qalamchasini tayyorlash va ekish muddatlarining ularni ildiz olishi, rivojlanishi hamda ko'chatlarning saqlanishiga ta'sirini o'rganish dolzarb masalalardan bo'lib qolmoqda. Jumladan, turli olimlarning olib borgan izlanishlari natijasida, vegetativ ko'paytirish to'g'risida ko'plab malumot berilgan. Biroq ekish muddatlari, qalamchalarning ildiz hosil qilish va rivojlanishi to'g'risida ma'lumotlar yetarli emas.

Manzarali o'simliklarni ildiz bachkilar yordamida ko'paytirishda, kesib tayyorlangan ildizbachki yilning qaysi vaqtlarida kurtak hosil qila olish qobiliyatini bilish juda muhimdir. Urug'idan va novda qalamchasidan qiyin ko'payadigan o'simliklarni ildiz bachkilar orqali vegetativ ko'paytirish, bachkidagi kurtaklarning

rivojlanish biologiyasini yaxshi bilish ko'chatchilik sohasida muhim ahamiyatga ega.

Ko'pgina olimlar ildizbachkidan ko'paytirish borasida ilmiy izlanishlar olib bogan. Professor L.V.Yandovka Cerasus Mill. va Microcerasus M.Roem tur va navlarida vegetative ko'paytirish bo'yicha tadqiqotlar olib boradi. Tadqiqotlari davomida erta bahorni ildiz bachkisidan ko'paytirishning eng qulay vaqti sifatida ko'rsatadi.

Tadqiqotchilar S.E.Lazerev va A.V.Semenyutinalar manzarali o'simliklar ildizi qismlari orqali tezroq ko'payishida uning yer ustki va yer ostki organlarining mexanik shikastlanishi yotadi deb hisoblashadi. Shuningdek, izlanishlari davomida vertikal joylashtirib ekilgan ildiz qalamchalari ildiz otish ko'rsatkichi gorizontal holda ekilgan ildiz qalamchalarnikidan yuqori ekanligini aniqlashadi. Ildiz qalamchalarni vertikal holda ekishni tavsiya qilishadi.

Tadqiqot uslubiyati.

Dala tajribalari Andijon viloyati Paxtaobod tumanida joylashgan "Andijon yo'l ko'kalam" UK ning manzarali o'simliklar pitomnigida 2020-2022 yillar davomida bajarildi.

Tanlab olinga tadqiqot obyektlarimizning uchta turida (Chitalpa tashkentensis T.S. Elias & Wisura, Melia azedarach L., va Rhus coriaria L.,) ildiz bachkilar (ildiz qalamcha) tayyorlash va ekish muddatlarining ularni ildiz olishi, rivojlanishi hamda saqlanishiga ta'sirini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar olib bordik.

Daraxt va butalarni vegetativ usulda ko'paytirish M. Browse tomonidan ishlab chiqilgan «Размножение растений» (1992) qo'llanmasi bo'yicha amalga oshirildi.

Ildiz bachkilar albatta bir yillik ildizlardan tayyorlanishi lozim.

Ildiz bachki qalamchalar tayyorlashda qalamchanning uzunligi 7-12 sm., diametri 0,8-1,2 sm qilib kesib olindi.

Tajriba obyektlaridan namunalar har bir variant uchun 100 donadan to'rt

qaytariqda 400 donadan qalamcha tayyorlandi.

Qalamchalarning ildiz tizimining shakllanishi ochiq maydonda stimulyatorlardan foydalanmasdan amalga oshirildi. Qalamchanning uchki qismi 45° burchak ostida kesildi, asos qismi esa tekis qilib kesildi. Ildiz qalamchalari bilan ko'paytirish texnologiyasini ishlab chiqishda turli xil ekish usullarining (vertikal va gorizontal) samaradorligi o'rganildi. Qalamchalarni 5-10 sm chuqurlikka ekildi. Vegetatsiya davomida talabga qarab sug'orib borildi.

Tadqiqot natijalari va ularning tahlili.

Odatda novda qalamchalari qutblilik qonuniga asosan kurtaklarning uchki tomoni yuqoriga qaratib ekiladi. Natijada, uchki kurtaklardan novda, ostki kurtaklardan esa ildiz shakllanadi. Ildiz qalamchalarida novdadagidek kurktaklar bo'lmaydi. Ildizdan qalamcha tayyorlashda o'sish konusi tomoni uchki qism, ona o'simlikka yaqin tomoni esa ostki qism deb hisoblanadi. Qalamchalar qutbini adashtirmasdan, hafsala bilan tayyorlanishi lozim.

M.azedarach va Rh.coritaria o'simliklaridan qalamchalar tayyorlandi va vertikal hamda gorizontal holatda ekildi. Qalamchalar uzunligi diametridan kelib chiqib 5-7 mm diametrga ega bo'gan qalamchalar uzunligi 7-9 sm, 8-10 mm diametrga ega qalamchalar uzunligi 10-12 sm uzunlikda qirgildi.

1-jadval

Ildiz qalamchalarini ko'karuvchanlik ko'rsatkichlarini vertikal hamda gorizontal holda ekishga bog'liqligi.

| O'simlik turi | Gorizontal holatda ekish chuqurligi 5-6 sm | | Vertikal holatda ekish | |
|---------------|--|--|------------------------------------|--|
| | Qalamcha o'lchami 5-7mm, 7-9 sm | Qalamcha o'lchami 8-10 mm, 10-12 sm | Qalamcha o'lchami 5-7mm, 7-9 sm | Qalamcha o'lchami 8-10 mm, 10-12 sm |
| Rh.coritaria | 50,5% | 66,5% | 79,75% | 88,25% |
| M.azedarach | 73,75% | 75,25% | 83,75% | 90% |

Rh.coriaria ildiz qalamchasining o'lchami 8-10 mm diametrli, 10-12 sm uzunlikdagi bo'laklarini vertikal holatda ekish natijasi 88,25% ni tashkil etib eng yaxshi ko'karuvchanlik ko'rsatkichi sifatida baholandi. M.azedarach ham shu o'lchamda kesilga ildiz qalamchalar 90% ko'karuvchanlik ko'rsatkichini tashkil etdi.

Tajribada Chitalpa tashkentensis T.S. Elias & Wisura. daraxti ildiz qismidan ko'paymasligini, Melia azedarach L. daraxti ildiz hosil qilish davri 32,8 kunni, Rhus coriaria L. daraxtida esa 30,2 kunni tashkil etishi aniqlandi. Ko'karuvchanlik darajasi Melia azedarach L. daraxtida 41,75 % va ko'chatlarning saqlanish darajasi 93 % ni tashkil etgan bo'lsa, Rhus coriaria L. daraxtida mos ravishda 96,4 % va 100 % ekanligi aniqlandi. Rhus coriaria L. daraxtining ildiz bachkisi orqali ko'paytirish eng samarali ekanligi qayd etildi.

Yillik novdaning bo'yi uzunligining ko'rsatkichi Rhus coriaria L. daraxti ko'chatlarida 49,4 sm. ni, Melia azedarach L. daraxti ning ildizidan ko'paytirilgan ko'chatlar bo'y uzunligi 41,3 sm va ni tashkil etdi. (2-jadval).

2-jadval.**Yillik novda bo'yi uzunligining ko'rsatkichlari**

| Ko'paytiriladi gan vegetativ organi | O'simlik turlari | n | Poya bo'yi, sm | | |
|-------------------------------------|--------------------|----|------------------------|-------|-------|
| | | | $\bar{X} \pm S\bar{X}$ | Lim | V % |
| Ildizbachki | Melia azedarach L. | 40 | 41,3±0,6 | 36-47 | 1,257 |
| | Rhus coriaria L. | 40 | 49,4±0,5 | 43-54 | 1,04 |

Yillik novdaning ildiz bo'g'zi diametri ko'rsatkichlari Rhus coriaria L.da 1,0 sm., Melia azedarach L. daraxtida esa 0,5-0,6 sm ekanligi qayd etildi (3-jadval).

3-jadval.**Yillik novdaning ildiz bo'g'zi diametri ko'rsatkichlari**

| Ko'paytiriladi gan vegetativ organi | O'simlik turlari | n | Ildiz bo'g'zi diametr, sm | | |
|-------------------------------------|--------------------|----|---------------------------|---------|-------|
| | | | $\bar{x} \pm S\bar{x}$ | Lim | V % |
| Ildizbachki | Melia azedarach L. | 40 | 0,5±0,01 | 0,4-0,7 | 2,864 |
| | Rhus coriaria L. | 40 | 1,0±0,02 | 0,7-1,1 | 2,255 |

Xulosa, taklif va tavsiyalar.

1. Chitalpa tashkentensis T.S. Elias & Wisura. daraxti ildiz qismidan ko'paymasligini, Melia azedarach L. daraxti ildiz hosil qilish davri 32,8 kunni, Rhus coriaria L. daraxtida esa 30,2 kunni tashkil etishi aniqlandi.
2. Ko'karuvchanlik darajasi Melia azedarach L. daraxtida 41,75 % va ko'chatlarning saqlanish darajasi 93 % ni tashkil etgan bo'lsa, Rhus coriaria L. daraxtida mos ravishda 96,4 % va 100 % ekanligi aniqlandi.
3. Rhus coriaria L. daraxtining ildiz bachkisi orqali ko'paytirish eng samarali ekanligi qayd etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Яндовка Л.Ф. Вегетативное размножение и возобновление у вишни и черешни. Агрономия и лесное хозяйство. «Известия» №1 (29)2013. С.85-91
2. Лазарев С.Е., Семенютина А.В. Технологические приемы размножения и выращивания видов рода Robinia L. Успехи современного естествознания № 3, 2021. С 17-25.
3. Гартман Х.Т., Кестер Д.Е. Размножение садовых растений. – М., Сельхозиздат, 1963. – 471 с.
4. Тарасенко М.Т. Новое в практике вегетативного размножения растений//Докл. ТСХА. 1978а. Вып. 53. 60 с.
5. Мак-Миллан Броуз Ф. Размножение растений: Пер. с англ. —М.: Мир, 1992. - 192 с., ил.